



Globallashuv jarayonida
innovatsion ta'lim va milliy
tarbiya: integratsiyaga xos
muammolar, bahslar va yechimlar

“Globallashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar”

mavzusidagi

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari TO'PLAMI



Сборник материалов международной

научно-практической конференции на тему:

«ИННОВАЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И НАЦИОНАЛЬНОЕ
ВОСПИТАНИЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ДИСКУССИИ
И РЕШЕНИЯ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОБЛЕМ»



“INNOVATIVE AND NATIONAL EDUCATION IN THE
PROCESS OF GLOBALIZATION: PROBLEMS, DISPUTES
AND SOLUTIONS RELATED TO INTEGRATION”

international scientific-practical conference on a collection of
materials



Termiz - 2023

босқичида талаба эгаллаши зарур бўлган кўникма, алака ва компетенцияларни баҳолашда эса, ишни бажариш учун зарур бўлган асбоблар ва жиҳозларни фарқлай олиш, уларнинг ишлаш принципини, уларни ишлатишни, лаборатория ишини бажариш тартибини билиш, иш бўйича қурилмани йиғиш, иш ўрнини тартибга келтиришни билиш, олинган натижаларни қайта ишлашни ва иш бўйича ҳисобот тайёрлашни билиш кабилар лаёқат элементлари қилиб олинган. Тапабанинг лаборатория иши бўйича назарий билими ва амалий кўникмалари лаёқатлилик элементларига мос равишда баҳолаш мезонлари асосида баҳоланади.

Машғулотнинг технологик харитасида одатдагидай машғулотнинг босқичлари, уларнинг қисқача мазмуни, уларга ажратилган вақт, шакл ва методи келтирилган. Методик ишланманинг талаба учун йўл-йўрик харитаси қисмида лаборатория ишини бажариш жараёнида талаба олиб бориши зарур бўлган фаолият босқичма-босқич баён этилган бўлиб, ҳар бир босқични қайси асбоблар ёрдамида, қандай тартибда амалга ошириш зарурлиги кўрсатилган. Ҳар бир иш бўйича уни бажаришдан кутилаётган натижага эришилганликни аниқлаш учун ишлаб чиқилган топшириқлар ва уларни баҳолаш мезонлари талабанинг муайян лаборатория иши бўйича эришган билим, кўникма, малака ва компетенцияларни юқори аниқликда баҳолашда ёрдам беради.

Адабиётлар

1. Махмудов Ю.Ф. Физикадан масала ва саволлар тўплами. Ўқув қўлланма. –Тошкент: “Factor press”, 2022. –458 бет.
2. Махмудов Ю.Ф. Физикадан масала ва саволлар тўплами. Ўқув қўлланма. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994. –248 бет.
3. Шаскольская М.П., Эльцин И.А. Сборник избраннѣх задач по физике.-М.: Наука. 1969.
4. Бутунов Ж.Р. Физиканинг “Механика” бўлимига доир график, экспериментал масалалар ечишга бўлган қизиқишни ривожлантириш йўллари ва имкониятлари (Олий таълим мисолида). –Тошкент: “Тафаккур”, 2022. –46 б.
5. Бутунов, Ж.Р. (2021). Бўйлама куч таъсирида стерженда тўлқин тарқалиши. Academic research in educational sciences, 2(2), 1081-1085.
6. Махмудов Ю.Ф, Бутунов Ж.Р. *Solving dynamics issues. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 4(4), 185-188 б.
7. Махмудов Ю.Ф, Бутунов Ж.Р. *Solving kinematics problems. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 4(4), 189-192 б.

YOSHLARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA QIZIQTIRISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna - Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasida dotsenti

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНТЕРЕСАХ МОЛОДЕЖИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Самиева Шахноз Хикматовна - доцент кафедры “Педагогика” Бухарского государственного университета

THE EFFECTIVENESS OF THE USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN THE INTERESTS OF YOUNG PEOPLE IN PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Samieva Shakhnoz Hikmatovna - Associate Professor of the Department of Pedagogy of Bukhara State University

Jadal rivojlanish davri oliy ta'lim tizimida o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishga, pirovard natijada jahon andazalari talablariga mos keladigan yetuk mutaxassis kadrlar yetishtirishga bo'lgan talab va ehtiyojning oshib borishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning hozirgi oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy mutaxassis-kadrlarni yetishtirish muammolariga qaratilgan bo'lib, bu masala yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning tajribalari ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish zamonaviy ta'lim sohasidagi ilg'or yangiliklarni o'zida mujassamlashtirgan uslub va tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning aksiologik asoslari va kasbiy-pedagogik faoliyatga aksiologik yondashuv, aksiologik ta'lim-tarbiya masalalarining qo'yilishi masalalari N.Shodiyev, A.CH.Choriyev, N.S.Kiyamov, X.A.Shayxova, B.G'.Ziyomammedov, Z.D.Davronov, Q.N.Nazarov, M.Tojiyev, M.M.Qahhorova, G.H.Tillayeva va D.Habibullayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[2]. Shuningdek, muammoga oid ma'lumot va nazariyalarni mashhur faylasuflar – Aristotel va Lutsiy Anniy Senekalar aksiologik qarashlarni inson ruhiyatining axloqiy takomili deb bilib, qadriyat kategoriyasi sifatida talqin etganlar[3].

Ta'lim sifati – aniq maqsadlarga erishish uchun olingan bilimlarni aniq sharoitlarda va ularni qo'llash joylarida talab qilib olishdir. Bunda bilimlarning sifati ta'limni tugatgandan keyin ish faoliyatida ularning puxtaligi, teranligi va talab qilib olinganligi bilan aniqlanadi.

O'qitish jarayonida yoshlarni kasbiy-pedagogik faoliyatga qiziqtirish, ijodiy va izlanuvchanlik qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab sanaladi. Shuning uchun yoshlarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda, ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim ilm berish va tarbiyalashni o'z ichiga olar ekan, ta'lim oluvchilarning aql va zakovat hamda ilm borasidagi kuch - quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o'z ma'suliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish o'qituvchi - pedagoglarning birinchi navbatdagi vazifasidir. Shuning uchun ham yoshlarni pedagogik-kasbiy faoliyatga qiziqtirib, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishi dolzarb vazifa hisoblanadi[2].

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo'lgan pedagoglarni jalb qilish zarur. Shunday ekan oliy ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan har bir o'qituvchi – pedagog ta'lim mohiyatini yaxshi tushunishi, mashg'ulotlar turlarini farqlay olishi, mashg'ulotlar jarayonini to'g'ri rejalashtira

olishi, tashkil eta olishi, amalga oshira olishi bugungi kun talabidir. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiiq qilish, talabalarni ko'proq mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyat bilan samarali shug'ullanish uchun ta'lim metodlarini yaxshi bilish yetarli emas, balki bu metodlarni sharoitga qarab to'g'ri tanlash hamda amaliy tadbiiq eta olish muhimdir. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullar o'qituvchi va talaba hamkorligida muayyan ta'lim – tarbiya maqsadlarini, o'quv vazifalarini hal qilishga qaratilgan faoliyatni ta'minlovchi omillar tizimi deb qaralishi lozim. Shuning uchun ham ta'lim usullari talabalar bilish faoliyati bosqichlari bilan bevosita bog'langan bo'lib, ularni jadallashtirish, faollashtirishga va ko'zda tutilgan natijaga erishuvga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyatini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida talabalar kasbiy-pedagogik faoliyatini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muammoning dolzarbligini belgilaydi. Shu munosabat bilan talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyatlarini faollashtirish bugungi kunda talab qilinayotgan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda.

Talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyati, birinchi navbatda, aniq ta'lim muassasasi mutaxassisini o'qitish va tayyorlash orqali shakllantiriladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash kasbga nisbatan yaxlit konseptual yondashuvni (qanday va nimani o'qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o'qitish motivatsiyasi), ta'lim jarayonini optimallashtirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi. O'qituvchi o'zining pedagogik mahorati, intellekti va madaniyatiga doimo jiddiy e'tibor berishi va pedagogik mahorati, kasbiy vazifalarini bajarish qanchalik qo'lidan kelishi darajasini doimo tekshirib borishi, ta'lim oluvchilar ongi hamda qalbiga kirib borishning maqbul yo'llarini muntazam izlashi zarur[4].

Talabalarining kasbiy-pedagogik faoliyatini shakllantirish bo'yicha quyidagi takliflarni berish mumkin bo'ladi:

- o'zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo'ladigan aniq ifodalangan kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik, bilimlarni egallash faolligi;

- kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olishga, shuningdek, yaxlit jarayonning barcha voqea va hodisalari, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantirish;

- talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashni individuallashtirish orqali aqliy va amaliy faoliyatida o'zining individual uslublariga ega bo'lish imkonini beradigan ta'limni tashkil etish[1].

Фойдаланилган адабиётлар

1. M. Turgunov pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyati sifatida // 2022.

2. Samiyeva S. YANGI O'ZBEKISTON ILM-FAN TARAQQIYOTIDA AYOLLARNING O'RNI VA ROLI //SENTR NAUHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2023. – T. 31. – №. 31.
3. Аристотель. Сочинения: В 4-х т. Т.4. –М.: Мысль, 1983; Сенека Луций Анний. Нравственные письма кЛуцилию. –М.: Наука, 1977.
4. Samiyeva S. IJODIYLIKKA O'RGATISHDA IJODIY PEDAGOGIKANING O'RNI //SENTR NAUHNIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz). – 2023. – T. 31. – №. 31.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING BOSHLANG'ICH IQTISODIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

*Sayidova Muxtaram Xamidullayevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Texnologik ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi*

Некоторые вопросы совершенствования элементарного экономического мышления детей школьного возраста

*Сайидова Мухтарам Хамидуллаевна, Преподаватель кафедры
"Технологическое образование" Чирчикского государственного педагогического университета*

Some issues of improving elementary economic thinking of school-age children

Sayidova Muxtaram Xamidullayevna, Lecturer of the Department of "Technological Education" Chirchik State Pedagogical University

O'tmishdan ma'lumki, bolalarga odob-ahloq ilmini berish bilan birga iqtisodiy masalalarni oddiy shakllantirishdan, shuningdek, mehnat qilish sirlaridan saboq berish lozim.

Maktab o'quvchilari iqtisodiy talim-tarbiyasining hozirgi ahvoli o'ziga xos xususiyatga ega. Gap shundaki, o'quvchilar hozirgi iqtisodiy faoliyat bilan bevosita aloqada emas.

Bolalarning iqtisodiy mehnatga muhabbati, oiladagi ijtimoiy muhit bola tarbiyasida eng katta rol o'ynaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisidan tortib, barcha insonlar va oila a'zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning ahloqiy shakllanishi mehnatsevarlik ilmga intilish, o'z xalqining an'alarini hurmat qilish, o'z Vataniga sodiqlik, jasurlik, sadoqatlik kabi tarbiya ko'rinishlari bilan kamol topadi [1].

Xalq pedagogikasida bolalarning mehnatga muhabbatli bo'lishida qadimdan kattalar namuna bo'lib kelganlar.

Odatda, o'z xo'jaligida yordam berish, ovqat tayyorlash, ukalariga qarash, bichish-tikish kabi usullar asosida qo'llanilgan. Bu esa o'z navbatida bolalar psixologiyasiga yordam bergan. Shu navbatda o'g'il bolalar ekin ekish, parvarishlash, uy hayvonlarini boqish kabi yumushlarni bajarganlar.

Xalq pedagogikasida yosh avlodni iqtisodiy mehnatda tarbiyalashning turli tuman yo'l va usullari, vositalari, manbalari mavjuddir.

Iqtisodiyotga oid fikrlarga qadimdan e'tibor berilgan. Qadimgi Misr, Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston mutaffakirlarining asarlarida ko'plab iqtisodiy tushunchalar keltirilgan va ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirishga harakat qilingan.

«Iqtisod» (ekonomiya) yunoncha «Oy konomio» so'zidan olinib «Oykos»-uy, xujalik, «nomos»-qoida, qonun ma'nosini bildiradi, dastlabki vaqtda u uy xo'jaligi qonun-qoidalari to'g'risidagi fan deb talqin etilgan.

28	Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limining umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish Norliyev Abror, Termiz davlat universiteti magistranti	91
29	Imkoniyati cheklangan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahoratining tutgan o'rni Salimova Ganjina Salomovna, Termiz davlat pedagogika instituti magistranti	95
30	Zamonaviy ta'lim muhitida zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentlik tuzilishidagi pedagogik mahoratlari Sharapova Nigora Amonovna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	97
31	Нақшбанлия тариқатида комил инсон зояси Махбуба Аслановна Халмухамедова, Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси	99
32	Физикадан лаборатория машгулотларида талаба назарий билими, амалий куникма, малака ва компетенцияларини баҳолаш Бутунов Жахонгир Рузиқулович, Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси	101
33	Yoshlarni kasbiy-pedagogik faoliyatga qiziqtirishda interfaol texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti	103
34	Maktab yoshidagi bolalarning boshlang'ich iqtisodiy tafakkurini takomillashtirishning ayrim masalalari Sayidova Muxtaram Xamidullayevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi	106
35	Boshqa ta'limda innovatsiya klaster - fanlararo integratsiya va uzluksizlikning kafolati Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi. Muratova Sabina Maqsudovna, Pedagogik ta'lim fakulteti talabasi	109
36	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuv Ro'ziyeva Gulsara Temirqulovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasi assistent o'qituvchisi	111
37	Педагогик таълимда Инновацион кластер лойиҳасини жорий этиш Байметов Мухамматали Меҳриддинович, ЧДПУ ўқитувчиси. Рустамова Фарангис Комолжон қизи, ЧДПУ талабаси	113
38	Талабаларида таянч, касбий ва махсус компетенцияларни ривожлантириш	115